
TOSHLOQ TUMANIDA ZAKOVAT INTELLEKTUAL O'YINI BO'LIB O'TDI

Toshloq tumanidagi 8-umumta'lim maktabida "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida "Zakovat" intellektual o'yinining tuman bosqichi bo'lib o'tdi. Unda sektor bosqichida g'olib bo'lgan jamoalar o'zaro bahs olib bordilar. Qiziqarli o'tgan tadbirda Bo'ston MFY jamoasi 1-o'rinni egallab, viloyat bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi. 2-o'rin Ucholish, 3-o'rin esa Yuqoriqishloq MFY yoshlariga nasib etdi. G'oliblarga Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limining diplom hamda esdalik sovg'alari topshirildi.

2022-11-09 08:30:59